

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “TU’LKI, TASBAQA HA’M TASKENE” ERTAGINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Zulqumar Qurbaniyazova

*Nukus davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: “Tu’lki, tasbaqa ha’m taskene” ertagini o‘qitishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning ahamiyatlari jihatlari borasida so‘z yuritiladi hamda ulardan samarali foydalanish uchun bir qator tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Multimedia vositalari, ertak, tulki, toshbaqa, texnologiya.

Annotation: Important aspects of the use of information technology tools are discussed in teaching the tale of the fox, turtle, and mite, and a number of recommendations are given for their effective use.

Key words: Multimedia tools, fairy-tale, fox, turtle, technology.

Аннотация: Обсуждаются важные аспекты использования средств информационных технологий при обучении сказке о лисе, черепахе и клеще, а также дается ряд рекомендаций по их эффективному использованию.

Ключевые слова: Мультимедийные инструменты, сказка, лиса, черепаха, технологии.

Jadal rivojlanayotgan bugungi kun ta’lim tizimi har bir pedagog zimmasiga ta’lim berish, tarbiyalash, ta’lim oluvchining bilimlarini xolisona baholash, qolaversa nazorat qilish mahoratini rivojlantirish vazifasini yuklaydi. Yangi davr o‘qituvchisi yuqoridagilarga qo‘srimcha ravishda ta’lim-tarbiya jarayonida yangicha qarashlarni shakllantirish xislatlarga ham ega bo‘lishi lozim. Zotan, muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bugun bitta kitob o‘qigan bola ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin”¹. Har bir bilim oluvchini o‘ziga jalb eta olishi bilan birga, ularning mashg‘ulot davomida zerikib qolmasligi uchun turfa xil interfaol usullardan unumli foydalana olgan ijodkor o‘qituvchigina bugungi kun o‘quvchisining mehrini qozona oladi.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqi azal-azaldan do‘s, birodar bo‘lib yashab kelmoqda. Bir daryordan suv ichishgan, bitta noni bo‘lishib yeganlar. Shu bilan birga ularning madaniyatlari ham adabiyotlari o‘zaro mutanosibdir. Bir so‘z bilan aytganda bir xalqning rivojlanish bosqichini yakka tarzda tasavvur qilish qiyin. Ulamolarimiz ta’kidlashganidek, hech bir adabiyot faqat o‘z qobig‘idan ajralmasdan boyib, rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi. Bir xalq yaratgan adabiyotni ikkinchisiga targ‘ib qilish, tanishtirish uchun asosiy ko‘prik – tarjimadir. Bu orqali qardosh va boshqa xalqlar adabiyoti, madaniyati, urf-odatlari bilan tanishish eshiklari ochiladi.

¹ <http://interscience.uz>

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shunday vositalardan biri-folkloarning turli xil janridagi namunalari hisoblanadi. Har bir el o‘zining milliyligi, qadriyatlarini aks ettiruvchi turli xil ertaklariga ega.

Ta’lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tili (davlat tili) dasturida ham qoraqalpoq xalq ertaklaridan namunalar o‘rganish uchun berilgan. Ta’lim qardosh tillarda olib boriladigan sinflarning 4-sinf qoraqalpoq tili (davlat tili) darsligida: “Tu’lki, tasbaqa ha’m taskene” (Qaraqalpaq xalq ertegi)² ertagi berilgan.

Ertaklarni o‘qitishda texnik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Multimedia shaklidagi o‘quv materiallaridan foydalanish o‘qish vaqtini qisqartiradi. Yangi innovatsion axborot muhitida o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol qatnashadilar, mustaqil fikrlashni o‘rganadilar, o‘z nuqtayi nazarlarini ilgari suradilar, real vaziyatlarni mustaqil tarzda tahlil qiladilar. “Tu’lki, tasbaqa ha’m taskene” qoraqalpoq xalq ertagini o‘rgatishda multimedia vositalaridan quyidagicha foydalanishimiz mumkin:



Ertakning audio varianti ikki tilda ya’ni qoraqalpoq va o‘zbek tillarida tayyorlanadi, o‘quvchilarga eshittiriladi. Natijada bolalar ertakning asl matni bilan tanishish barobarida uning o‘z ona tilidagi tarjimasini ham eshitishga muvaffaq bo‘ladi.

“Hayvonlar haqidagi ertaklarning qahramonlari turli-tuman jonivorlar bo‘lib, voqelik hayvonlar orasidagi munosabat tarzida bayon qilinsa-da, aslida ularda kishilar jamiyatiga xos voqe-hodisalar majoziy tarzda aks ettiriladi”.³ “Tu’lki, tasbaqa ha’m taskene” ertagidagi hayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda quyidagi usuldan foydalanamiz:

1.O‘quvchilarga ertakdagi hayonlarni tasvirlashlarini topshiriq sifatida beramiz.

2.Uchta qahramon nutqi alohida kichik matn ko‘rinishida tayyorlanib, o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi. O‘quvchilar esa eshitganlari ma’lumotlari qaysi qahramonga tegishli ekanligini topishlari kerak bo‘ladi.

Berilgan topshiriqlar to‘liq bajarilgandan so‘ng, javoblari taqdimot tarzida ko‘rsatiladi. Bolalar bajargan mashqlarini mustaqil tekshirib oladi, to‘g‘ri javob bilan o‘zlarining yozganlarini qiyoslash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

² Primjarova I., Nauruzbaeva A., Embergenova A. Qaraqalpaq tili, 4-klass. (Oqiw basqa tillerde alip barilatuqin klasslar ushun sabaqlig). – Nokis: Bilim, 2019.

³ Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., TilavovA. O‘zbek folklori. Darslik. Toshkent: “Malik print co”, 2021.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ertakni bu usuldan foydalanib o‘qitish orqali o‘rganuvchilarning bir vaqtning o‘zida ertakdagи voqeа-hodisalarни jonli tarzda ko‘z oldida namoyon qilish, eshitish, ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarini mustaqil analiz, sintez qilishlariga yaqindan yordam beradi.Bu usuldan foydalanilsa, o‘quvchilarning estetik zavq olishlariga, matn mazmunini to‘la anglashiga, hayotiy faktlarni, fantaziyani to‘g‘ri tushunishiga erishamiz.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanadigan metod va usullarning qo‘llanish xususiyatlari mavjud. Ayniqsa, ularda me’yor va mezonlarga rioya etish ahamiyatlidir. Shuningdek, multimedia vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha miqdor va muddatda foydalanish ham oldindan rejalashtirilishi kerak bo‘ladi. Ularga rioya etmaslik esa o‘rganuvchida zerikish, tushunmay qolish kabi holatlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida bolalarni mustaqil mulohazaga yo‘naltirishda badiiy matnlarning turfa xillaridan, yuqoridagi kabi turli metodlardan foydalanish belgilangan maqsad yo‘lida samaraga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi bolalarga qisqa vaqt ichida ruhiy hordiq beradi va muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavova. O‘zbek folklori. Darslik. Toshkent: “Malik print co”,2021.
2. Primjarova I., Nauruzbaeva A., Embergenova A. Qaraqalpaq tili, 4-klass. (Oqiw basqa tillerde alip barilatuǵın klasslar ushin sabaqlıq). – Nökis: Bilim, 2019.
3. <http://interscience.uz>
4. Allambergenov, H. (2023). Innovative ways to teach the life and work of Rashod Nuri Guntekin in literary education. The Peerian Journal, 18, 25-29.
5. Kamolovich, A. H. (2018). Some Scientific Observations About Unnatural Symbols in the Folklore. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 73-79.
6. Matyakupov, S. G., Kenjaev, F. I., & Razzakova, M. N. (2021). Interpretation of images and expressions in the form of communication. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 967-974.